

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

YODGOROVA ZEBO G‘AFFOROVNA

**MEDIA OLAMNING LISONIY MANZARASIDA MODALLIK
KATEGORIYASINING MILLIY O‘ZIGA XOSLIGI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philology sciences**

Yodgorova Zebo G‘afforovna

Media olamning lisoniy manzarasida modallik kategoriyasining milliy
o‘ziga xosligi.....3

Ёдгорова Зебо Гаффоровна

Национальная специфика категории модальности в языковой
картине медиамира23

Yodgorova Zebo Gaffarovna

National Specificity of the Modality Category in the Linguistic Landscape
of the Media World.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....49

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

YODGOROVA ZEBO G‘AFFOROVNA

MEDIA OLAMNING LISONIY MANZARASIDA MODALLIK
KATEGORIYASINING MILLIY O‘ZIGA XOSLIGI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

Falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2146 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Teshabayeva Dilfuza Muminovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Yuldashev Akmal Gulyamjanovich**
filologiya fanlari doktori, dotsent

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc. 03/30.12.2019. Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil "30"-noyabr soat 10 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21A-uy. Tel.: (99871)230-12-91; faks: (99871) 230-12-92, e-mail. uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (114) raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21A-uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "15" noyabr kuni tarqatildi.

(2024-yil "15" noyabr da № 37 -raqamli reyestr bayonnomasi).



[Handwritten signature]

I.M.Tuxtasinov

Ilmiy daraja beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

X.B.Samigova

Ilmiy daraja beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash kotibi, filol.f.d.,
professor

J.A.Yakubov

Ilmiy daraja beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, filol.f.d., professor

[Handwritten signature]

KIRISH (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida bosma mediada til birliklarini inson omili bilan bog'liq holda o'rganish asosiy masalaga aylanmoqda. Global axborot makonida media tilini xalqning milliy-madaniy qarashlari, etnik belgilari hamda auditoriyaning dunyoqarashi bilan bog'liq holda o'rganish ustuvor ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shu bois, mediamatnda modallik kategoriyasining lisoniy tizim doirasida namoyon bo'luvchi xususiyatlari va vazifalaridan kelib chiqib tahlil qilishda funksional-semantik nuqtayi nazardan yondashish ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarining obykti sifatida belgilanmoqda.

Dunyo tishunosligida olamning lisoniy manzarasi tavsifida til egalarining dunyoni qay tarzda idrok etishi, milliy-madaniy qarashlari, tafakkurining o'rni, shuningdek, turli tillarda media olam lisoniy manzarasining universal jihatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Modallik hamda baholash kategoriyalarining o'zaro bog'liqlik tomonlari – kategorial birliklarning turlari va differensial belgilarning semantik maydonda kesishuvining mavjudligi, modallikning boshqa semantik birliklar bilan birikuvi uning universal kategoriya sifatida o'rganish va milliy o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish muhim masala hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligining yangi sohalaridan biri sanalgan medialingvistika doirasida media tili tabiatini yaqqol yoritib beruvchi qator tadqiqotlar yaratilmoqda. Xususan, o'zbek media tilining lingvistik xususiyatlarini chog'ishtirma aspektda tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. “Bugungi globallashuv davrida har bir mustaqil davlat o'z milliy manfaatini ta'minlashi, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy”.¹ Shu bois, o'zbek tilining sofligini saqlash, uni har tomonlama rivojlantirish hamda millatimizga xos mediamadaniyatni shakllantirish borasida ilmiy-nazariy asoslar ishlab chiqildi. Ammo medianing lisoniy olami masalalari yechimiga oid tadqiqotlarda til tizimida modallik kategoriyasini voqelantiruvchi birliklar yetarli darajada o'rganilmadi. Bu kabi tilshunoslik muammolarini yangi metodologik tamoyil va zamonaviy mezonlar asosida tadqiq etish bugungi kun tilshunosligi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti”ni tashkil etish to'g'risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”, 2019-yil 2-oktabrdagi PF-5850-sonli “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сонли фармони // www.lex.uz.

PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi yillarda dunyo tilshunosligida media olamining lisoniy manzarasi muammosini o‘rganishga qiziqish ortgani sari turli tillarda lingvistik modallik kategoriyasining tadqiqiga keng e‘tibor qaratildi. Jahon tilshunosligida F.R.Palmer, Z.A.Getman, T.P.Arhipovich, V.A.Bondarenko, V.V.Vinogradov, Y.N.Bazalina, Y.I.Belyaeva, T.N.Xomutova, A.V.Bondarko, Y.M.Garashova² kabi olimlar tomonidan modallik kategoriyasi va uning leksik-semantik, pragmatik xususiyatlari keng tadqiq etildi.

² Palmer F.R. Mood and modality (Cambridge Textbooks in Linguistics), 2nd edn. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001; Getman Z.A., Arhipovich T.P. Модальность как общетекстовая категория // Вестник МГУ. Сер.19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. – М., 2006. – № 2. – С. 34-48; Bondarenko V.A. Международная научная конференция / “Модальность в языке и речи: новые подходы к изучению”. Российский государственный университет им. И.Канта. Вестник РФФИ, 2008; В.В.Виноградов в работе “О категории модальности и модальных словах в русском языке”. – М., 1972. – С. 123; Bazalina E.N. Семантико-синтаксические средства выражения модальности в художественном тексте (сопоставительный анализ немецкого и русского языков). Автореф. дис. канд. филол. наук. – Краснодар, 2001. – 38 с.; Файл формата PDF, размером 375,60 КБ <http://www.twirpx.com>; Беляева Е.И. Модальность и прагматические аспекты директивных речевых актов в современном английском языке. Автореф. дис... канд. филолог. наук / Е.И.Беляева. – М., 1988. – С. 4; Хомутова Т.Н. Система Аспект Пресс, 2002. – 320 с.; Володина М.Н. Язык СМИ как особый вид социального взаимодействия // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Ч 2. – М.: Изд-во МГУ, 2004. – С. 11-37; Соколова О.И. Речевая культура газеты. Автореф. дисс. канд. фил. наук. – Саратов, 2004. – 20 с.; Бобоева А. Газета тили хакида. – Тошкент, 1983. – 56 б.; Тошалиев И. Сарлавха стилистикаси. – Т.: Ўзбекистон, 1995. – 96 б.; Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 45 б.; Абдураимова Ш.К. Сўз ўзлаштириш назарияси ва ўзлаштирмаларнинг вақтли матбуот тилида ўзгара бориши. Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 1995. – 53 б.; Кодиров Н. Семантико-стилистический анализ в узбекском и русском языках в новейший период 1991-2001гг. (на материале газет и устной речи). Автореф. дисс. канд. фил. наук. – Ташкент, 2001. – 40 с.; Ахмедова Д.Р. Форс тили сўз туркумларининг газета матнларидаги функционал ва услубий хусусиятлар. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 70 б.; Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2012. – 330 б.; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Медиамаконда матн. – Т.: Турон-Иқбол, 2019. – 208 б.; Исраил М.И. ОАВда ёзма матн. Нутқ ва мунозара. Ўқув-қўлланма / С.Шомаксудова, М.Исраил. – Т.: Иқтисод-Молия, 2018. – 180 б.

²Абдуазизов А.А. Тилшунослик назариясига кириш. – Т., 2010. – Б. 176; Боймирзаева С. Аксиологик модалликнинг матнда воқеаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2009. – Б. 85-88; Махмудов М., Нурманов А.Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 56-59; Нурманов А., Махмудов М. ва бошқалар, Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т., 1992. – Б. 80-89; Ҳожиев А. Лингвистик терминлар луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 144 б.; Абдуразаков М.А. Семантическая структура высказывания (Семантические типы субъектов и предикатов). Автореф. дис. ...докт. филолог. наук. – М., 1985. – С. 28; Саидов С., Зикриллаев Ф. Немис тили грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1973. – Б. 1-70; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 25; Турниёзов Н.Қ. Функционал синтаксисга кириш. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 22; Турниёзов Н.Қ. Матн лингвистикаси. – СамДЧТИ, 2004. – Б. 86; Маматов А.Э. Очерки по французской фразеологической стилистике. – Т.: Ўқитувчи, 1989. – С. 117; Ёқубов

Tilshunos olimlar Dj.Oruell, A.Bell, J.Stokes, A.Chernix, T.G.Dobrosklonskaya, Y.V.Yevdokimova, V.G.Kostomarov, S.I.Smetanina, A.A.Tertichniy, M.N.Volodina, O.I.Sokolova, A.Boboyeva, I.Toshaliyev, A.Abdusaidov, Sh.K.Abduraimova, N.Kodirov, D.Ahmedova, G.X.Bakiyeva, D.M.Teshabayeva, M.I.Israil³ va boshqalarning ilmiy izlanishlarida media tili hamda uning lingvistik jihatlarining ilmiy-nazariy asoslari yaratildi.

O'zbek tilshunoslaridan A.Abduazizov, S.Boymirzayeva, N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Hojiyev, M.Abdurazzoqov, S.Saidov, Sh.Safarov, N.Q.Turniyozov, A.Mamatov, J.Yoqubov, M. M. Jo'rayeva⁴ va boshqa olimlar

Ж.А. Модаллик категориясининг мантик ва тилда ифодаланиш хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 315; Жўраева М.М. Француз ва ўзбек эртақларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Т., 2017. – 87 б. лексикограмматических средств выражения ирреальной модальности в придаточных предложениях в современном английском языке. Дисс. канд. фил. наук. – Москва, 1984; Бондарко А.В. Теория функциональной грамматики. Темпоральность. Модальность / А.В.Бондарко. – Л.: Наука, 1990. – 80 с.; Гарашова Е.М. Модальные глаголы в английском языке и средства их выражения в азербайджанском языке. Дисс. канд. фил. наук. – Баку, 2016.

³Оруэлл Дж. “Политика и английский язык” в сборнике Политическая лингвистика. – № 20. – Екатеринбург, 2006. – С. 280-294; Bell A. The Language of News Media. – Oxford: Blackwell, 1991. – 296 p.; Stokes J. How to Do Media and Cultural Studies. – London, Macmillan, 2021. – 408 p.; Черных А. Мир современных медиа. – М.: Территория будущего, 2007 (Серия “Университетская библиотека Александра Погорельского”). – 312 с.; Добросклонская Т.Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ (Современная английская медиа речь). – М.: Флинта: Наука, 2008. – 264 с.; Евдокимова Е.В. Прагматический и лингвокультурологический аспекты перифраз и сходных стилистических приемов в газетно-журнальном дискурсе: на материале прессы Великобритании и США. Автореф. дисс. канд. фил. наук. – Новосибирск, 2007. – 20 с.; Костомаров В.Г. Наш язык в действии. Очерки современной русской стилистики. – М., 2005. – 287 с.; Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиатекстов. – М.: Флинта, 2000. – 288 с.; Сметанина С.И. Медиатекст в системе культуры. Динамические процессы в языке и стиле журналистики конца XX века. – СПб: Издательство Михайлова В.А., 2002. – 384 с.; Тертыйный А.А. Жанры периодической печати. – М.: Аспект Пресс, 2002. – 320 с.; Володина М.Н. Язык СМИ как особый вид социального взаимодействия // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Ч 2. – М.: Изд-во МГУ, 2004. – С. 11-37; Соколова О.И. Речевая культура газеты. Автореф. дисс. канд. фил. наук. – Саратов, 2004. – 20 с.; Бобоева А. Газета тили ҳақида. – Тошкент, 1983. – 56 б.; Тошалиев И. Сарлавҳа стилистикаси. – Т.: Ўзбекистон, 1995. – 96 б.; Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 45 б.; Абдураимова Ш.К. Сўз ўзлаштириш назарияси ва ўзлаштирмаларнинг вақтли матбуот тилида ўзгара бориши. Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 1995. – 53 б.; Кодиров Н. Семантико-стилистический анализ в узбекском и русском языках в новейший период 1991-2001гг. (на материале газет и устной речи). Автореф. дисс. канд. фил. наук. – Ташкент, 2001. – 40 с.; Ахмедова Д.Р. Форс тили сўз туркумларининг газета матнларидаги функционал ва услубий хусусиятлар. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 70 б.; Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2012. – 330 б.; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Медиамаконда матн. – Т.: Турон-Иқбол, 2019. – 208 б.; Исраил М.И. ОАВда ёзма матн. Нутқ ва мунозара. Ўқув-қўлланма / С.Шомаксудова, М.Исраил. – Т.: Иқтисод-Молия, 2018. – 180 б.

⁴Абдуазизов А.А. Тилшунослик назариясига кириш. – Т., 2010. – Б. 176; Боймирзаева С. Аксиологик модалликнинг матнда воқеаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2009. – Б. 85-88; Маҳмудов М., Нурманов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 56-59; Нурманов А., Маҳмудов М. ва бошқалар, Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т., 1992. – Б. 80-89; Ҳожиёв А. Лингвистик терминлар луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 144 б.; Абдуразаков М.А. Семантическая структура высказывания (Семантические типы субъектов и предикатов). Автореф. дис. ...докт. филолог. наук. – М., 1985. – С. 28; Саидов С., Зикриллаев Ф. Немис тили грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1973. – Б. 1-70; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 25; Турниёзов Н.Қ. Функционал синтаксисга кириш. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 22; Турниёзов Н.Қ. Матн лингвистикаси. – СамДЧТИ, 2004. – Б. 86; Маматов А.Э. Очерки по французской фразеологической стилистике. – Т.: Ўқитувчи, 1989. – С. 117; Ёқубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантик ва тилда ифодаланиш хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс. –

modallik kategoriyasining mantiq hamda tilda ifodalanishi, uning lingvokognitiv va milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rgandilar. Medianing lisoniy olamiga oid qator tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, mediamatnlarning turli jihatlari, shuningdek, makon va modallik kategoriyalari o‘zbek hamda boshqa tillar kesimida lingvistik planda keng tahlil etilmagan. Bu esa, o‘z o‘rnida, dissertatsiya tadqiqoti dolzarb ekanligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Tilshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bosma media olamining lisoniy manzarasida modallik kategoriyasini ifodalovchi til vositalarini lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

– media tili va uslubi, modallik kategoriyasi bo‘yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlarni o‘rganish hamda modallik kategoriyasining tabiatini nazariy jihatdan tadqiq etish;

– media olamida mediamatn modalligining mazmuniy turlarini asoslash;

– bosma mediamatnda modallik kategoriyasini aks ettiruvchi til vositalarini tasniflash;

– media tilida modallikning voqelanishidagi o‘ziga xos jihatlarni aniqlash;

– media olam lisoniy manzarasida modallik kategoriyasining namoyon bo‘lishidagi milliy-madaniy o‘ziga xoslikni asoslash.

Tadqiqotning obyekti o‘zbek va ingliz gazeta matnida modallik kategoriyasini ifodalovchi til birliklari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini bosma media olamining lisoniy manzarasida modallik kategoriyasini ifodalovchi til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, semantik komponentli, kontekstual, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bosma medianing lisoniy olamida modallikning voqelanishi, modallik kategoriyasi turlarining tasniflanishi, ular o‘rtasidagi umumiy farqlar axborotning maqsadi, ta’sir etish, ishontirish va kommunikativ funksiyasidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi hamda bu jarayon bir qator lingvistik, ekstralingvistik omillar, mexanizmlar va me’yorlarga bog‘liqligi asoslangan;

bosma mediamatnda modallik kategoriyasining axborot orqali voqelanishi mafkuraviy ta’sirga hamda shakl va shamoilga tayanishi, har bir bosma media o‘z auditoriyasining ehtiyojlariga qarab bayon qilinayotgan voqea-hodisalarga nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirishi modallikning aksiologik baholash mezonlari orqali amalga oshirilishi dalillangan;

gazeta matnida modallik kategoriyasi morfologik, leksik va sintaktik vositalar

Тошкент, 2007. – Б. 315; Жўраева М.М. Француз ва ўзбек эртақларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Т., 2017. – 87 б.

hamda kirish soʻzlarning lingvistik tasnifi asosida yoritilgan va modal semantik mazmunga ega boʻlgan ehtimollik, ruxsat, iltimos, taklif, buyruq, majburiyat yoki maslahat kabi otlarning feʼllar bilan bogʻlanib kelishi asoslangan;

media olamining milliy manzarasida modallikni ifodalovchi til birliklari (modal soʻzlar, ibora va maqollar)ning oʻziga xosligi, olamni bilish va oʻzlashtirishning maxsus usuli, mediamatndagi modallik kategoriyasining axborotning ishonchligini belgilovchi mental va sotsial jarayonlar hamda epistemik, gnoseologik va kommunikativ parametrlar bilan chambarchas bogʻliqligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

media olamining lisoniy manzarasida modallik kategoriyasini ifodalovchi birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari boʻyicha chiqarilgan xulosalar zahirida mediamatnda modallikni ifodalovchi lisoniy birliklar tahlil qilingan;

mazkur tadqiqotning xulosalaridan sohaviy oʻquv-uslubiy materiallarni tayyorlashda, ushbu soha boʻyicha tashkil etiladigan oʻquv fanlaridan darslik, qoʻllanmalar hamda elektron lugʻatlarni yaratishda keng foydalanish mumkin. Shu bilan birga, jurnalistika, til nazariyasi, chogʻishtirma tilshunoslik hamda soha mutaxassislari va ilmiy tadqiqotchilari uchun zaruriy manba sifatida qabul qilinishi hamda modallikning kommunikativ-pragmatik-aksiologik xususiyatlarini tahlil qilish asosida modallik kategoriyasining milliy-madaniy jihatlarini oʻrganishda dasturilamal boʻlib xizmat qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Dissertatsiya ishida zamonaviy tilshunoslikda qoʻllanilayotgan tadqiqot usullarining tadbiqui asosida mavzu boʻyicha ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilgan. Gazetalardan olingan misollarni tahlil qilish orqali media olam lisoniy manzarasida modallik kategoriyasi voqelanishining lingvomadaniy jihatiga doir fikrlar umumlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda modallik kategoriyasi medialingvistik tamoyillar va modallik kategoriyasini ifodalovchi lisoniy birliklar medialingvistika, pragmalingvistika, semiotika, lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika, jurnalistika sohalariga oid tadqiqot muammolarini yoritishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati shu bilan aniqlanadiki, “Medialingvistika”, “Gazeta tili va uslubi”, “Leksikologiya”, “Umumiy tilshunoslik”, “Lingvokulturologiya” va “Media tarjima” kabi fanlar boʻyicha darslik hamda oʻquv-qoʻllanmalarni yaratish, maʼruzalar hamda maxsus kurslarni tashkil etishda makonni ifodalovchi lisoniy birliklarning oʻzbek va ingliz tillaridagi universallik hamda idioetnik jihatlaridan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Media olamining lisoniy manzarasida modallik kategoriyasi va uning oʻzbek hamda ingliz tillarida ifodalanishi va milliy oʻziga xosligi muammosining tadqiqi asosida:

bosma medianing lisoniy olamida modallikning voqelanishi va modallik kategoriyasining turlari tasniflanib, ular oʻrtasidagi umumiy farqlar axborotning

maqsadi va kommunikativ funksiyasidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi hamda bu jarayon obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liq ekanligi haqidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialida 2017-2020-yillarda bajarilgan “FZ-2016-0908165532-raqamli Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2023-yil 6-fevraldagi 69-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada media olamining lisoniy manzarasida modallik kategoriyasining milliy o‘ziga xosligi tushunchasi bilan bog‘liqligi borasida bevosita ilmiy-nazariy manbalar boyitishga xizmat qilgan;

bosma mediamatnning ma‘noviy maydonida modallik kategoriyasining axborot orqali voqealanishi hamda bayon qilinayotgan voqea-hodisalarga nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirishda modallikning aksiologik baholash darajasining mavjudligi haqidagi ilmiy xulosalaridan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilgan IL 21091378-raqamli “Oliy ta‘lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarni kasbiy saralashning psixologik diagnostikasi tizimini shakllantirish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 8-iyundagi IRD/23 130-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada milliy madaniyatimizga xos aksiologik xususiyatlar shakllanishiga amaliy jihatdan yordam bergan;

gazeta matnida modallik kategoriyasi morfologik, leksik va sintaktik vositalar hamda kirish so‘zlarning lingvistik tasnifi asosida yoritilgan hamda modal semantik mazmunga ega bo‘lgan *ehtimollik, ruxsat, iltimos, taklif, buyruq, majburiyat* yoki *maslahat* kabi otlarning fe‘llar bilan bog‘lanib kelishi haqidagi ilmiy xulosalaridan Qashqadaryo viloyati “Voqif” ma‘naviy-ma‘rifiy, ijtimoiy-ommabop gazetasidagi maqolalarni tayyorlashda keng foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat “Voqif” ma‘naviy-ma‘rifiy, ijtimoiy-ommabop gazetasi tahririyatining 2023-yil 5-yanvardagi 4-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ilmiy-ommabop gazeta materiallari mazmuni ma‘rifiy va amaliy jihatdan boyitilib, ilmiy dalillar bilan ta‘minlangan;

media olamining milliy manzarasida modallikni ifodalovchi til birliklari (modal so‘zlar, ibora va maqollar)ning o‘ziga xosligi, olamni bilish va o‘zlashtirishning maxsus usuli, mediamatndagi modallik kategoriyasining axborotning ishonchligini belgilovchi mental jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqligi haqidagi ilmiy xulosalaridan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan IL 21091378-raqamli “Oliy ta‘lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarni kasbiy saralashning psixologik diagnostikasi tizimini shakllantirish” mavzusidagi innovatsion loyahasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 8-iyundagi №IRD/23 130-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada lingvokulturologiya va psixolingvistika kabi fanlarning o‘qitilishida hamda mazkur amaliy loyiha bo‘yicha elektron resurslar, nazariy hamda amaliy materiallar tayyorlashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 4 ta

xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy maqola, shulardan, 11 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (4 ta respublika va 8 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 140 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, usullari tavsiflangan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Media olamida modallik kategoriyasi tadqiqining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanadi. Ushbu bobda zamonaviy media tili, media tilida modallik kategoriyasining lingvistik asoslari hamda media tilida olamning lisoniy manzarasini aks etishi tahlil qilingan.

Mediamakonda tilning barcha imkoniyatlari dunyoda sodir bo'layotgan xabarlarining yoritilishida, auditoriya ongiga milliy-madaniyatni sindirishda, til mentalligi masalalarini kommunikatsion vaziyatda voqealanishida namoyon bo'ladi. Zero, “... yagona media maydonida barcha axborotlarni qabul qiluvchilar ommaviy auditoriya hisoblanganligi uchun ham uni tarqatish kommunikativ jarayon sifatida baholanadi”⁵. Dunyoda yuz berayotgan voqealarni til birliklari orqali yoritish, anglash nafaqat jurnalistikaning uslubiy ko'rinishi, balki uning ba'zi muhim til xususiyatlarini ham belgilaydi.

Media tili ma'lum bir ijtimoiy muhitda biror bir maqsadga asoslangan kommunikativ aloqani ta'minlaydi. D.M.Teshabayevaning yozishicha: “Media tilining ta'sir etish kuchi cheksizligi va til tafakkurining umumlashtiruvchanlik faoliyatida zarur qurol bo'lib xizmat qilishi, bu esa, o'z navbatida, axborot almashinuvi natijasida “dunyoni ko'rish, anglash, axborotni qabul qilishda uning ahamiyati beqiyos ekanligidan dalolat beradi”⁶.

⁵ Усмонова Ш.А. Медиадискурсда газета тили тенденциялари (Ўзбек ва инглиз тиллари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2021. – 147 б.

⁶ Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол. фан. док. дисс... –Тошкент, 2012. – Б. 32.

Dunyo axborot ichida yashaydi, dunyo axborot ummonida mavjud. “Dunyo axborotdan tashqarida mavjud bo‘lolmaydi, zero, axborotning borligi – dunyoning borligi, axborotning yo‘qligi – dunyoning ham, hayotning ham yo‘qligi demakdir”⁷.

Ma’lumki, til kommunikatsiya vositasidan potensial iste’molchining ongiga ta’sir qilish vositasiga aylanadi. Bundan tashqari, til kommunikatsiya vositasidan shaxsning ongiga ta’sir qilish vositasiga aylanishi mumkin. Tilning bu xususiyati zamonaviy OAVda keng foydalanilmoqda. G.Y.Solganikning fikriga ko‘ra, ommaviy axborot vositalari tili – millatning standart tili, milliy til modeli bo‘lib, adabiy me’yorlar, til uslubini shakllantiradi, siyosat, mafkura, san’at, adabiyotni o‘zlashtirishga ta’sir etadi⁸.

Bugungi kunda OAV tili ilmiy tadqiqotlarning istiqbolli sohasi hisoblanadi. Bu borada xorijiy va mahalliy tadqiqotlar sirasiga N.Feyerklaf, A.Bell, T.Van Deyk, J.Bignell, Danuta Ri, R.Vodak, B.Bush, Ya.N.Zasurskiy, V.G.Kostomarov, M.N.Volodina, A.A.Leontev, D.N.Shmelev, S.I.Bernshteyn, A.N.Vasileva, Y.V.Rojdestvenskiy, T.G.Dobrosklonskaya, A.V. Polonskiy T.V.Chernishova, N.V.Chicherina, N.I. Klushina, I.M.Kobozeva, G.Y.Solganik, S.I.Treskova, I.P.Lisakova, B.V.Krivenko, A.Abdusaidov, G.X.Bakiyeva, D.M.Teshabayeva, S.D.Sa’dullayev, I.Y.Toshaliyev, S.X.Shomaksudova, M.Israil, Sh.Usmonova, M.R.Artikova, Y.R.Odilov kabi olimlarning ishlarini keltirish mumkin⁹.

⁷ Дўстмухаммад Х. Ахборот – мўжиза, жозиба, фалсафа. – Т.: Янги аср авлоди, 2013. – Б. 20.

⁸ Язык СМИ и политика/ под ред. Г.Я.Солганика. – М.: Издательство Московского университета, 2012. – С. 859.

⁹ Reah D. The Language of Newspapers. Second Edition. – London: Routledge, 2002. – 126 p.; Fairclough N. Language and Power. – London, 1989. – 226 p.; Bell A. The Language of News Media. – Oxford, Blackwell, 1991. – 296 p.; Теунван Дейк. Язык. Познание. Коммуникация / пер. с англ. – М., 1989. – 308 с.; Bignell J. Media Semiotics, An Introduction. 2nd edn. – Manchester: Manchester University Press, 2002. – 240 p.; Wodak Ruth; Brigitta Busch. Approaches to media texts. In: John Downing; Denis McQuail; Philip Schlesinger; Ellen Wartella (eds.) Handbook of Media Studies. – Thousand Oaks, London, New Delhi, 2004. – S. 105-123; Добросклонская Т.Г. Теория и методы медиалингвистики (на материале английского языка). – М., 2000; Шмелев Д.Н. Синтаксическая членность высказывания в современном русском языке. – М.: Ком Книга, 2006. – 152 с.; Бернштейн С.И. Язык радио. – М., 1977; Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе. Некоторые особенности языка современной газетной публицистики. – М.: МГУ, 1971; Васильева А.Н. Газетно-публицистический стиль речи: курс лекций по стилистике русского языка. – М.: Русский язык, 1982. – 197 с.; Рождественский Ю.В. Теория риторики. – М., 1997; Солганик Г.Я. Общие особенности языка газеты // Язык и стиль средств массовой информации и пропаганды. – М.: МГУ, 1980. – С. 22; Трескова С.И. Социалингвистические проблемы массовой коммуникации. – М., 1989. – С. 178; Лысакова И.П. Язык газеты: социалингвистический аспект. – Л.: ЛГУ, 1981; Кривенко Б.В. Язык массовой коммуникации: лексико-семиотический аспект. – Воронеж, 1993; Володина М.Н. Язык СМИ – особый язык социального взаимодействия // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Ч. 2. – М.: МГУ, 2004. – С. 38; Леонтьев А.А. Психолингвистический анализ языка СМИ // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Ч. 2. – М.: МГУ, 2004. – С. 97; Чернышова Т.В. Фатическое общение в сфере газетной коммуникации / Русский язык: исторические судьбы и современность. Труды и материалы II Международного конгресса исследователей русского языка. – М.: МГУ, 2004. – С. 442-443; Чичерина Н.В. Типология медиатекстов как основа формирования медиаграмотности // Известия РГПУ им. А.И.Герцена. – М., 2007. Вып. 7. Т. 9; Засурский Я.Н. Колонка редактора: медиатекст в контексте конвергенции // Вестник МГУ Серия 10: Журналистика, 2005. – № 2; Кобозева И.М. Лингвопрагматический аспект анализа языка СМИ // Язык СМИ. – М.: Академический проспект, 2008. – С. 221; Абдусaidов А.А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс... автореферати. – Т., 2005; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Медиамаконда матн. Монография. – Т., 2019. – 222 б.; Саъдуллаев С.Д. Язык и стиль средств массовой информации. – Ташкент: Заркалам, 2002; Тошалиев И.Е. ва б. ОАВ тили ва услуги. – Т.: Университет, 2000; Шомаксудова С.Х., Исраил М.И. ОАВда ёзма матн. Нутқ ва мунозара. Ўқув-қўлланма. – Т.: Иктисод-Молия, 2018. – 180 б.; Сафаров Ш.С. Лингвистика дискурса / Ш.С.Сафаров. – Челябинск; ЧГИК, 2018. – 316 с.; Одilов Ё.Р. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг таракқиёти. – Т.: Нодирабегим, 2020. – 140 б.;

Dunyo tilshunosligida media tili tadqiqi borasida eng nufuzli, dolzarb hamda muammoli ilmiy yoʻnalishlardan biri – medialingvistika boʻlib, uning asosiy vazifasi media tili xususiyatlari bilan bogʻliq hodisalar hamda milliy tildan foydalanishning turli jihatlarini tadqiqi kompleks tarzda olib boriladi.

Har bir davrda boʻlgani kabi har bir jamiyat, har bir madaniyat oʻz mediasi, oʻz tajribasi va auditoriyaga axborot uzatishda oʻz modeli, oʻz tili (milliy)ga ega boʻlib, undan foydalanishi tilning, jamiyatning qadriyatlari va mentaliteti bilan bogʻliq. Axborotning mavjudligi media tilining shakllanishida ustuvor ahamiyatga ega. Zero, “Axborot bu – asrash, uzatish, oʻzgartirish obyekti boʻlib xizmat qiluvchi maʼlumotlardir”¹⁰.

Media tili masalalari tahliliga funksional-semantik jihatdan yondashuv lisoniy birliklarning aniq va yashirin maʼnolari hamda unda modallikning turli xil ifodasi namoyon boʻlishini koʻrsatadi. N.Q.Turniyozovning fikricha, “gap unsurlarining modallik belgisi bir tomondan soʻzlovchi shaxs ruhiyati bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan ularning anglatadigan maʼnolari bilan ham uzviy aloqadordir”¹¹.

“Modallik (lotincha modalis – oʻlchov, usul) – fikrning voqelikka boʻlgan munosabatlarining turli xil koʻrinishlarini, shuningdek, bildirilayotgan narsalarni subyektiv tarzda tasniflashning turlicha koʻrinishlarini ifodalovchi funksional-semantik kategoriya¹² hisoblanadi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida “Modallik”ka quyidagicha taʼrif berilgan: “MODALLIK [fr. modalite < lot. modus – usul; mayl] tlsh. Fikrning, gap mazmunining voqelikka boʻlgan munosabatini koʻrsatuvchi grammatik kategoriya”¹³. Ingliz tilida modallikka quyidagicha taʼrif berilgan: “Modality is the grammaticalized expression of the subjective attitudes and opinions of the speaker including possibility, probability, necessity, obligation, permissibility, ability, desire, and contingency”¹⁴.

A.N.Nurmaxanova: “modallik soʻzlovchining voqelikka munosabatini aniqlab, gap tuzilishida doimo ishtirok etuvchi grammatik kategoriyadir” deb yozadi¹⁵. A.Nurmonov: “Modallik gapning asosiy birligi, gap semantikasining eng muhim komponenti, modallik kategoriyasi uchun subyektiv tomon birlashtiruvchi belgi vazifasini oʻtashi mumkin” deb hisoblaydi”¹⁶. S.Oʻ.Boymirzayeva oʻz

Лушина Н.И. Русский национальный стиль и его реализация в текстах современных СМИ. In: Stylistyka. Opole, 21. – М., 2012. – С. 19-34; Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. Из наблюдений над речевой практикой масс-медиа. – М., Златоуст, 1999. – С. 319; Полонский А.В. Язык современных СМИ: культура публичного диалога. В кн.: Мир русского слова, 1. – М., 2009. – С. 62-66; Солганик Г.Я. О новых аспектах изучения языка СМИ. В кн.: Вестник Московского университета. Серия 10: Журналистика, 3. – М., 2000. – С. 31-38.

¹⁰Теория информации // Сборник рекомендуемых терминов. Вып. 64. – М., 1964. – С. 5.

¹¹ Турниёзов Н.Қ. Функционал синтаксисга кириш. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 22.

¹² Мирзаев И. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 6 т. – Т., 2000. – Б. 38.

¹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Б. 605.

¹⁴ Palmer F.R. Mood and modality (Cambridge Textbooks in Linguistics), 2nd edn. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 62.

¹⁵ Нурмаханова А.Н. Типи предложений по модальности и интонации в тюркских языках. Дисс... док. филол. наук. – Ташкент, 1966. – С. 72-83.

¹⁶ Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 84 б.

tadqiqotida subyektiv modallikning emotiv, epistemik, deontik va aksiologik turlarini ko'rsatadi¹⁷.

O' P.Lafasov "gapning nominativ aspekti tarafdorlari fikrini ikki qismga, ya'ni diktum hamda modusga ajratadi. Bu har qanday jumlaning predikativ tabiati ikki sathdan tashkil topganligi bilan belgilanadi: birinchisi, denotat (diktum)ning subyekt-predikat munosabatini aks ettirsa, ikkinchisi bu munosabatga so'zlovchining munosabatini ifodalaydi. Shu bois obyektiv modallik diktumga, subyektiv modallik esa modusga kiradi" degan fikrni ilgari suradi.

M.A.Abdurazzoqov modallikni uchta komponent bilan izohlaydi:

a) modallik xarakteri; b) modallik mazmuni; v) modallik sharti.

"Modallik kategoriyasi deb, qator funksional-semantik modallik kategoriyalarining (tasdiq-inkor, real-noreal, so'roq, undov, payt, sabab, maqsad, qiyos, shart, niyat, buyruq, natija, to'siqsiz, o'rin, inkor, tasdiq, mavjudlik, muloyimlik (xushmuomalalik), taxmin (gumon), o'xshatish, holat, maslahat, iltimos, talab, mumkinlik va hokazo) shakllanib, rivojlanib, turli xil ma'no nozikliklariga qo'shib, uyg'unlashib keng funksional-semantik maydonni hosil qilish jarayonida so'zlovchining obyektiv borliqqa munosabatini anglatib, so'zlovchi va tinglovchi orasidagi kommunikativ muloqotning amalga oshishida ifodalanayotgan semantik ma'nolar majmuiga aytiladi"¹⁸.

Modallik publitsistik matnlardagi faol komponent bo'lib, u xabar muallifi tomonidan o'ylab topilgan va rejalashtirilgan samaraga erishish hamda turli maqsadlarda qabul qiluvchiga ta'sir qilishni ta'minlaydigan universal vositadir. Publitsistikada faol qo'llaniladigan modal kategoriyalar jurnalistik matn muallifiga kerakli ma'noni jonli, obrazli va qisqacha tarzda yetkazish imkonini beradi.

Ma'lumki, dunyoning lisoniy manzarasi ikki tomonlama xususiyatga ega, birinchidan, bu dunyo haqidagi ma'no va g'oyalar yig'indisidan iborat qandaydir ideal, mental tuzilma bo'lib, ular maxsus integral tizimga joylashtiriladi¹⁹; ikkinchidan, dunyoning muhim xususiyatlarini til tashuvchilari tushunishida aks ettirish natijasi, insonning barcha ruhiy faoliyati natijasidir²⁰.

Darhaqiqat, olamning lingvistik manzarasi barcha milliy tillarda, dunyoning hamma milliy lisoniy manzaralarida mujassamlashgan. Borliqning har bir milliy lisoniy manzarasi ma'lum bir til hamjamiyatining o'ziga xos noyob idrokini aks ettiradi. Olamning lisoniy manzarasi dunyoning bir qancha, ya'ni rasmiy, ilmiy, kasbiy, sodda manzaralari kabi variantlarga bo'linadi. Shu bois olamning lisoniy manzarasi aks etgan mediamatnda gap mazmunini baholash va modallik xususiyatlarini ochib berishda hamda gapning emotsional-ekspressivlik mazmunini yoritishda aksiologik modallikning o'rni beqiyosdir.

¹⁷Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матнинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол. фан. док. дисс... автореф. – Т., 2010. – Б. 3-4.

¹⁸ Келтирилган манба. – Б. 57-88.

¹⁹ Теля В.Н. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира // В.И.Постовалова, Б.А.Серебренников, Е.С.Кубрякова и др. // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира; отв. ред. Б.А.Серебренников / АН СССР, Ин-т языкознания. – М.: Наука, 1988. – С. 176-177.

²⁰ Постовалова В.И. Картина мира в жизнедеятельности человека // В.И.Постовалова, Б. А. Серебренников, Е.С.Кубрякова и др. // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира; отв. ред. Б.А.Серебренников / АН СССР, Ин-т языкознания. – М.: Наука, 1988. – С. 21.

Gazeta matni orqali berilayotgan xabarlarining har bir qismida uning janr xususiyatlaridan kelib chiqib, modallik kategoriyasining fe'l mayllari bilan chambarchas uyg'unlashgan grammatik vosita sifatida ifodalanishiga duch kelamiz. Gazeta matnlarida ifodalangan modallikning turli-tuman, rang-barang semantikasi tilning tipologik jihatlari va lisoniy olam manzarasining milliy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

“Bosma mediamatnda modallik xususiyatlarining til birliklarida tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobda modallik kategoriyasining leksik-grammatik tasnifi, modallik kategoriyasida sintaktik tasnif hamda mediamatnda modallik turlarining verballashuvi masalalari yoritilgan.

Ushbu bobda modallikni ifodalovchi leksik-grammatik vositalardan modal so'zlar va modal yuklamalar, shuningdek, ularning so'zlashuvda modallik makromaydonining tarkibiy qismi sifatidagi vazifasi atroflicha tahlilga tortilgan. Ingliz tilida modallikni ifodalovchi leksik birliklarga *must/have to, should/ought to, will/would, can/could, may/might* kabilar kiradi. Bunday fe'llar *subyektiv modallikni* ifodalovchi lingvistik vositalarga tegishli hisoblanadi.

O'zbek tilida modal so'zlar modallik kategoriyasini ifodalovchi leksik-grammatik vositalardan biri hisoblanadi. O'zbek va ingliz tillaridagi modallikni ifodalovchi leksik vositalar gazeta matnida o'ziga xos semantik mazmun ifodalash uchun qo'llaniladi. O'zbekzabon gazeta tilida *shak-shubhasiz, kerak, muhim, shart, lozim, darkor, mavjud, mumkin, shunday, bo'lsa, afsus(ki), ehtimol, balki, shunchalik, biroq, nihoyatda, tabiiyki, umuman, ya'ni, xususan, xo'sh, aniqlanishicha, rostdan, chindan, ko'ringanidek, zero, darhaqiqat, albatta, avvalo, demak, asosiysi, jumladan, ammo, axir, shuningdek, natijada* kabi modallik kategoriyalari qo'llanilishi kuzatilgan bo'lsa, inglizzabon gazetalarda *certainly, indeed, perhaps, happily – unhappily, of course, evidently, maybe, luckily – unluckily, no doubt, naturally, probably, fortunately – unfortunately, surely, obviously, possibly, apparently, really, assuredly, actually, undoubtedly* va h.k. kabi birliklar qo'llaniladi. Masalan, o'zbek tilidagi gazetalarda: **“Ammo shunday bo'lsa-da, ular astma hurujini keltirib chiqaradi”** (Darakchi. 29.11.2021. – № 48); **“... biroq, o'z yo'nalishi bo'yicha zarur bilim ko'nikmaga ega bo'lishi kerakligini unutmazlik lozim”** (Xalq so'zi, 2020. – № 145). Ushbu misolda, inkor modal so'z bilan tasdiqlovchi modal so'zlar ishtirok etgan. **“Biroq bir narsani tushunish kerak-ki, ko'pchilik ota-onalar bunga qodir emas”** (Darakchi, 2022. – № 46) va h.k. Ingliz gazetalarida: **“But I am concerned that there is *actually* a good chance she might pass the test”** (The New York Times. 4.01.22); **“None, *though*, has the same potential to influence Russia as China does”** (The Times. 02.03.2022); **“However, The Times understands that Usmanov is such a central figure at the club that he has been involved in the appointment of managers”** (The Times. 02.03.2022), **“But entry remained extremely difficult, with Taliban checkpoints pushing Afghans back and no clear system to bring people”** (The Wall Street Journal. 19.08.2021) va h.k.

Ma'lumki, modal so'zlarning asosiy ma'nosi, bu turli modal munosabatlarning ifodasidir:

uning realligi → ehtimollik → haqiqat

imkoniyatlar → imkonsizlik → aniqlik → taxmin

Ba'zi kontekstda modal soʻzlar sifat, ravish va boshqa soʻz turkumlari bilan birga kelishi hamda bir nechta komponentdan tashkil topishi kuzatildi: “*Axir, mast qiluvchi ichimliklarni, tamaki chekishni oʻziga odat qilib olayotgan yoshlar taqdiriga befarq qarash mumkinmi?*” (Inson va qonun, 2013. – № 2) va h.k. Ushbu misolda mumkinlik soʻroq ostiga olingan va befarq qarash mumkinmi iborasi uch komponentdan iborat.

Misollardan koʻrinib turibdiki, **KERAK** → **SHART** → **LOZIM** → **DARKOR** → **ZARUR** modal soʻzlar maʼno jihatdan bir-biriga yaqinligini kuzatish mumkin.

Misollar tahlili shuni koʻrsatdiki, nafaqat gazeta matnida tasdiqni, balki taxmini va kelajakdagi rejalarning amalga oshirishdagi prognozlarni bildiruvchi modal soʻzlardan foydalanishni ham koʻrish mumkin. Bu, ayniqsa, inglizabon gazetalarda qoʻllanishini aniqladik: “The New York Times” gazetasining 2021-yil 9-dekabrda sonidan olingan misollarga toʻxtalamiz: “*Because most current infections, which are still overwhelmingly being driven by the Delta variant, are affecting unvaccinated people, the W.H.O. said, getting vaccines to those who have no protection **should be the priority***”; “*First, though, they **must build** a case by compiling things like witness statements and medical records*”; “*We **must dramatically** shrink the number of people vulnerable to the virus – or else we risk allowing our population to act as a petri dish for the growth of variants*”; “*They also argue that any law that burdens their exercise of “editorial judgment,” however minimally, **should be deemed** unconstitutional*”; “*The federal appeals courts **should not allow** the companies to turn the First Amendment against the values it was meant to serve*” va h.k. Oʻzbekzabon gazetalarda tahliliy janrlarda taxmin va ehtimollikni ifodalovchi modal soʻzlar ishtiroki kuzatildi: “*Oʻzbekistonga suv kirib kelishi 2050-yilga **qadar kamayib ketishi mumkin** – Shavkat Hamroyev*” (Darakchi, 2021. – № 46); “*Hozirgi vaqtda tabiiy ofat Meksikaga yetgach u Saffir-Simpson shkalasi boʻyicha 3 ballgacha **koʻtarilishi mumkin***”; “*Logistika operatsiyalarini tegishli tartibda tashkil etish kabi qatʼiy shartlar bajarilgan taqdirdagina radioaktiv chiqindilarni Yevropa Ittifoqidan uchinchi mamlakatlarga **olib chiqish mumkin***”; “*Ehtimol, koʻplar murabbiyni oila aʼzosi yoki ota-onalariga tenglashtiradi, deb oʻylashi **mumkin***” (Gazeta.uz. 13.10.2021) va h.k.

“Independent” nashrining 2021-yil 23-sentyabr sonidagi misollar tahlilida ingliz gazeta matnlarida taxmin va farazni ifodalovchi modal soʻzlar tanqidiy-tahliliy maqolalarda maʼno kuchaytiruvchi vazifada kelishi aniqlandi: “*He changed the course of my life. He’ll **probably** never know*”; “*Well, you **possibly** freak out, imagine the glory you might receive, and then realize how dangerous the situation actually was*”.

Koʻrinib turibdiki, **possibly**, **probably**, **maybe** kabi modal iboralar gap mazmundorligining oshishiga xizmat qilgan. Xuddi shunday “Washington Post” gazetasining 2022-yil 7-yanvar sonida ham bu kabi modal soʻzlarni va uning kontekstdagi vazifasini uchratish mumkin: “*Will you be here tomorrow? **Possibly***”; “*I don’t think you understand. Well, **perhaps not***” va h.k.

Tadqiqotimiz mobaynida modal va kirish soʻzlarning gazeta matnida bir vaqtning oʻzida bir nechta turi birgalikda kelishini kuzatdik. Jumladan, “Mahalla” gazetasining 2022-yil 19-yanvardagi **“Qarovsiz hudud qaysi sektorga tegishli?”** sarlavhasi ostida chop etilgan maqolada quyidagi modal va kirish soʻzlardan foydalanilgan: **“Aftidan, tuman hokimi oʻz sektoridagi bu kamchiliklardan xabardor emasdir. Ehtimol, yordamchilari bu sharoitlar haqida hokimga xabar bermagandir. Balki bilib turib, bilmaslikka olayotgandir. Nima boʻlganida ham hokim bobo bu ishlardan xabardor boʻlishi shart. Axir, unga tuman hududi ishonib topshirilgan emasmi?”** Koʻrinib turibdiki, ushbu matnda muallif aftidan, ehtimol, balki axir kabi taxmin va farazni ifodalovchi soʻzlardan matn yaratishda foydalangan.

Ingliz tilida modallik vazifasini bajaruvchi feʼllar ham mavjud, bular modal feʼllar hisoblanadi. *Must/have to, should/ought to, will /would, can/could, may/might, need.* Modal feʼllar gapda asosiy feʼlga qoʻshilib maʼno kuchaytirish yoki qoʻshimcha maʼno qoʻshish uchun hizmat qiladi: *“Basil **could** not cope without her”*; *“They thought it **might** be a trick”*; *“It **would** be more than 35 years before they would return”*; *“I realise this **may** be controversial”*; *“A snail **can** sleep for 3 years”*; *“We **should** all of us here and anywhere thank God for the endearments of the family circle, for the presiding genius in the home the mother with all that the name means of tender sympathy, of constant devotion, of daily sacrifice”* (The Washington Times. №7447);

Oʻzbek tilida sintaktik modallik quyidagi birikmalar orqali ham ifodalanadi: **“Xuddi shuningdek, ishsizlik masalasini inflyatsiya bilan bogʻlab hal qilish zarur”** (Xalq soʻzi, 2022. – № 91); **“Shu jihatdan, Oʻzbekiston yuklarini Yevropa hamda yaqin Sharq yoʻnalishida tashish uchun kasbiy dengizi qirgʻogʻidagi portlardan foydalanish toʻgʻrisidagi Turkmaniston Prezidentining taklifi istiqbolli ekanini qayd etish lozim”** (Xalq soʻzi, 2021. – № 9); **“Masala shundaki, ularni ham harakat evaziga qazib olib, qayta ishlashga qodir korxonalar va mutaxassislar tayyorlash zarur”** (Xalq soʻzi, 2021. – № 9);

